

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 788 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati..... | 10 |
| Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna | |
| Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati | 16 |
| Gulnora Abdurahmonova | |
| O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari | 22 |
| S. R. Topildiyev | |
| Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi | 28 |
| Muratova Shohista Nimatullayevna | |
| Green Economy in Tourism in Uzbekistan..... | 32 |
| Alieva Makhbuba Toychievna | |
| Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты" | 36 |
| Гольшева Елена Вячеславовна | |
| Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari | 42 |
| Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloevich | |
| To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari..... | 47 |
| A.Yu. Mardanov | |
| Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari..... | 52 |
| A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li | |
| O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish | 57 |
| Abdullayev Elyorbek Odiljon o'g'li | |
| Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni | 62 |
| Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li | |
| Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlar..... | 66 |
| Asraqulov Abduraxmon Sultonovich | |
| Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari..... | 70 |
| Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna | |
| Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari..... | 74 |
| Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich | |
| Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati..... | 78 |
| Butanova Dilnoza Rustamovna | |
| Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri..... | 83 |
| Hallakova Barnoxon bahodirjonovna | |
| Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi | 95 |
| Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li | |
| Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'rni..... | 101 |
| Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi | |
| Qurilish materiallari sanoati korxonalarini samaradorligini baholash masalalari..... | 104 |
| Isayev Jakhongir Muzaffarovich | |
| Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari | 110 |
| Kasimov Baxtiyor Usmanovich | |
| Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi..... | 113 |
| Mahamatova Maftuna | |
| Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari..... | 119 |
| Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna | |



| | |
|--|-----|
| Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rtabiznesni moliyalashtirish usullari..... | 124 |
| Said Po'latov Maxamedovich | |
| Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry | 128 |
| Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li | |
| Dorivor o'simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar..... | 135 |
| To'xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi | |
| O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni | 142 |
| Toshmurod Kulmanov | |
| Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari | 147 |
| Tursunova Dilnavo Islomovna | |
| Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish..... | 150 |
| Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi | |
| Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo'llari..... | 159 |
| Allayor Norboyev Ismoilovich | |
| Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish..... | 162 |
| Boltayev Abror Sayitmuradovich | |
| Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari..... | 168 |
| Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich | |
| Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig'ining ahamiyatini oshirish | 174 |
| Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich | |
| Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq tushunchalarining nazariy masalalari | 179 |
| Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov | |
| Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Agglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida | 185 |
| Raximbayev Akmal Azatboyevich | |
| Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari | 190 |
| Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich | |
| Globalashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish | 195 |
| Salimov Dilshodbek Davronovich | |
| To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi..... | 199 |
| Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich | |
| Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshligini oshirish yo'llari | 203 |
| Nilufar Umarova | |
| O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili | 207 |
| Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li | |
| Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirining tahlili | 213 |
| Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich | |
| Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari | 220 |
| Meliyev Isroil Ismoilovich | |
| Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar | 227 |
| Melikov Otabek Maxmadiminovich | |
| Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni..... | 232 |
| Abdikarimov Islombek Ibragimovich | |
| Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar..... | 237 |
| Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna | |
| Задачи предмета «русского языка» на современном этапе..... | 243 |
| Адилова Солияхон | |



| | |
|--|-----|
| Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati | 247 |
| Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li | |
| Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari..... | 252 |
| Gapparov Azim Qayumovich | |
| O'zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri..... | 258 |
| Isayev Atabek Djurabayevich | |
| Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market..... | 266 |
| Jurabek Sobirov | |
| Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili..... | 270 |
| Kuldashev Sherzod Alimardonovich | |
| Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli | 276 |
| Mamadiyeva Dilrom Ravshon qizi | |
| Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili..... | 280 |
| Mamadjanova Tuyg'uno'y Axmadjanovna | |
| Improving Internal Control System | 287 |
| Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li | |
| Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMlar veb-saytlari samaradorligini oshirish..... | 291 |
| Musayev Bekjon Shukurillayevich | |
| Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish | 298 |
| Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari..... | 302 |
| Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li | |
| Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari..... | 306 |
| N. B. Yahyoxonov | |
| Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili..... | 311 |
| Nazarova Muslima Nazarovna | |
| Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlarini..... | 317 |
| Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich | |
| Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari..... | 322 |
| Olimova Nodira Xamrakulovna | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar | 329 |
| Oppoxonov Nurmuhhammadxon Po'latxon o'g'li | |
| O'zbekistonda davlat korxonalarini transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari..... | 333 |
| Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li | |
| Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi | 338 |
| Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o'g'li | |
| Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari..... | 341 |
| Raxmanov Mexridin Sindarovich | |
| Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati..... | 345 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna | |
| Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish..... | 350 |
| Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li | |
| Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar | 355 |
| Samandarova Gulxayo Abdulkarim qizi | |
| Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari | 359 |
| Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li | |
| To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati | 363 |
| Todjimamatova Mashxura Erkinovna | |
| Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi | 367 |
| Toshboyev Muzaffar Muxtorovich | |



| | |
|--|-----|
| Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане..... | 373 |
| Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich | |
| Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts..... | 379 |
| Urozaliev Elyor Shuxrat oqli, Xujamov Bobur bahodir oqli, Saydullayev Abbosjon Murodovich | |
| Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar..... | 384 |
| Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich | |
| Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari..... | 391 |
| Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi | |
| Telekommunikatsiya korxonolari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish..... | 396 |
| Xusanov Ulugbek Nishanovich | |
| Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari..... | 402 |
| Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna | |
| O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari..... | 405 |
| Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi | |
| Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров..... | 408 |
| Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна | |
| Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari..... | 412 |
| Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Iloxomjon o'g'li | |
| Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari..... | 416 |
| Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich | |
| Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан..... | 420 |
| Адашов Гайрат Рустамович | |
| Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi..... | 424 |
| Axmediyeva Aliya Toxtarovna | |
| Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане..... | 432 |
| Б. А. Хакимов | |
| Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции..... | 438 |
| Бабаева Гузаль Яшиновна | |
| "Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgan imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida..... | 444 |
| Davlayev G'olib Ashurovich | |
| Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili..... | 447 |
| Djalilov Dostonbek Abduazizovich | |
| Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri..... | 452 |
| Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich | |
| O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish..... | 457 |
| Jonuzokov M. K. | |
| Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish..... | 461 |
| Ismailov Allayor Rashidovich | |
| Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции..... | 465 |
| Исроилов Абдурашид Абдурахманович | |
| Iqtisodiyotni globalashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish..... | 471 |
| Kalandarova Nargiza Narimanovna | |
| Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения..... | 475 |
| Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна | |
| Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях..... | 478 |
| Киличев А. А. | |
| Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish..... | 485 |
| Kodirkulov Oybek Turdiboyevich | |



| | |
|--|-----|
| Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане..... | 490 |
| Курпаяниди Константин Иванович | |
| Ho'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish..... | 497 |
| Mahmudova Go'zal Samadjon qizi | |
| Muqimiy ijodiDA milliy uyg'onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar | 502 |
| Muxlisa Muxitdinova | |
| Совершенство управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана | 505 |
| Наимов Шахрух | |
| Определение специфических особенностей и факторов влияющие на процесс внедрения международных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан..... | 509 |
| Хайдаров Зохир Шаривович , Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохир Зода | |
| Inson kapitalida mujassam bo'lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli | 514 |
| Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova | |
| Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма..... | 521 |
| Пулатова Сурайё Юлдашевна | |
| Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе..... | 525 |
| Рахимова Гавхар Ойбековна | |
| O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli | 530 |
| Saidova Subhinigor Azizovna | |
| Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari | 535 |
| Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o'g'li | |
| Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari | 541 |
| Umirov Xurshid Islomovich | |
| Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari..... | 545 |
| Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna | |
| "Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии | 549 |
| Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович | |
| Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия | 555 |
| Хамдамов С. Ф. | |
| Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish..... | 562 |
| Xasanova Nafisa Shavkatovna | |
| Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish..... | 566 |
| Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi | |
| Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar..... | 572 |
| Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna | |
| Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari | 578 |
| Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich | |
| Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni..... | 583 |
| Toyrova Amina Baxtisher qizi | |
| Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili | 588 |
| Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li | |
| Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar | 592 |
| K. Q. Tajibayev | |
| Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике | 599 |
| Камолова Феруза Кахрамоновна | |



| | |
|--|-----|
| O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari | 603 |
| Mirzayeva Lola Shavkatovna | |
| Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni | 607 |
| Normurodova Zebo Eshmaxmatovna | |
| Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi..... | 612 |
| Ruzmetova Gulira'no Atabekovna | |
| Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari..... | 620 |
| Salixov Sherzod Abduxakimovich | |
| Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish | 625 |
| Xusanova Gulsum Baxtiyorovna | |
| Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish | 628 |
| Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich | |
| Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi | 635 |
| Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li | |
| Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari..... | 640 |
| Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov | |
| Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста | 644 |
| Насиров Дилшод Фархадович | |
| Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана | 654 |
| Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович | |
| Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir..... | 659 |
| Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li | |
| Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari..... | 664 |
| Razzakov Jasur Xamraboyevich | |
| Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan | 670 |
| Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi | |
| Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish | 677 |
| Meliqulov Abduhalil Norinovich | |
| O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari | 683 |
| Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li | |
| Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi..... | 689 |
| Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna | |
| Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari..... | 694 |
| Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li | |
| The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It..... | 699 |
| Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara | |
| Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar..... | 705 |
| Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich | |
| Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari | 709 |
| Tuxliyev Iskandar Suyunovich | |
| Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari | 713 |
| Tuychiyev Kamoliddin | |
| Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari | 717 |
| Yadgarov Nodir Ravshanovich | |
| Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va iqtisodiy asoslari..... | 723 |
| Amirqulov Shuxrat Olimovich | |
| Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari | 727 |
| G'ofurov Temur Baxrom o'g'li | |



| | |
|---|-----|
| O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari | 730 |
| Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li | |
| Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari | 733 |
| M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva | |
| Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni | 737 |
| Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich | |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari | 741 |
| Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich | |
| Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish | 745 |
| Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich | |
| Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari | 749 |
| Xusanov Qaxramon Nishonovich | |
| Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике | 753 |
| Киличева Фариди Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна | |
| Эффективность программ соответствия в различных компаниях | 757 |
| Ахмедов Бехзод Ахмедович | |
| Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте | 762 |
| Хасанов Кахрамон Ахмаджанович | |
| Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles | 767 |
| Esanova Shohida Utkirovna | |
| Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari | 774 |
| Madiyarov Sanjar Gulyamovich | |
| Пахта-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish | 781 |
| Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li | |



KORXONALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARI

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarining strategik boshqaruvi samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda boshqaruvning innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: korxonani boshqarish, samaradorlik, innovatsion strategiya, innovatsion yondashuvlar, raqobat muhiti, korxonaga raqobatbardoshligi.

Abstract: This article highlights the effectiveness of the strategic management of enterprises and the assessment of the factors influencing it, as well as the mechanisms for using innovative approaches in management.

Key words: enterprise management, efficiency, innovative strategy, innovative approaches, competitive environment, enterprise competitiveness.

Аннотация: В данной статье освещается эффективность стратегического управления предприятиями и оценка факторов, влияющих на него, а также механизмы использования инновационных подходов в управлении.

Ключевые слова: управление предприятием, эффективность, инновационная стратегия, инновационные подходы, конкурентная среда, конкурентоспособность предприятия.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarurdir.

Hozirda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, so'nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaviy usullarni keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda.

Natijada bozor islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi milliy korxonalarining iqtisodiy taraqqiyotini moddiy resurslar asosida emas, balki innovatsion shaklda, raqobat muhitini shakllantirish orqali amalga oshirilishini zaruratga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni¹. Harakatlar strategiyasining davomi sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mintaqada ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish, avvalo iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish dasturining eng ahamiyatli vazifalari qatoridan o'rin olgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.



Hozirgi kunda respublikamiz korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish ularni texnologik yangilash jarayonlarini yaxshilash bilan bir qatorda, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish, raqobat muhitini shakllantirishni davom ettirilishini taqozo etmoqda. Bu esa, hozirgi iqtisodiyotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi hamda tovarlar bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida yanada dolzarb masalaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy rivojlanish va uning yaqin kelajakdagi istiqbolining o'ziga xos xususiyati shundaki, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tobora zaruriy vositaga aylanib bormoqda. Bu tendensiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, bozor islohotlari yaqinda amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ham keng namoyon bo'lmoqda.

XXI asrning boshiga kelib insoniyat yangi paradigma, ya'ni milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda mamlakatlar o'zining innovatsion ishlab chiqarish konsepsiyasiga o'tishi zarur degan xulosaga kelindi. Natijada iqtisodchi olimlarning innovatsiyalar bilan bog'liq turli qarash va yondashuvlari rivojlana boshladi. Bu borada amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt "Innovatsiya jarayoni ilm, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o'zida birlashtiruvchi, innovatsiyalarni tijoratlashuviga qaratilgan faoliyatdir" – deb ta'kidladi. Uning fikricha, innovatsiya jarayoni g'oyani paydo bo'lishidan boshlab tijorat asosida hayotga tatbiq etish jarayonigacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan M.Ionov, A.Kulagin, V.Loginovlarning ilmiy ishlarida innovatsiyalar – korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zarurati va vositasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ular o'z tadqiqotlarida innovatsion jarayonlarni "xarajatlarni tejash yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta'minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, boshqaruv, moliyaviy, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalaridagi yangiliklar" sifatida ko'rishgan.

A.Utkin esa bozor sharoitida korxonalarining samarali iqtisodiy faoliyati uchun innovatsiyalar muhimligini ta'kidlab, korxonalar iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy dastaklardan biri sifatida tavsiflagan.

Ushbu muammolarning O'zbekistonda boshqaruv nuqtayi nazaridan hal qilinishiga xos xususiyatlar Sh.Zaynutdinov, D.Rahimova, M.Mahkamova, A.Rasulev, R.Alimov, A.Qodirov, N.Yo'ldoshev, T.Toshpulatov, G.Xamdanova, G.Xatamova, N.Namazova, G.Xasanova, Sh.Otajonov, Sh.Sindarov, R.Nazarova, N.Alimova, Z.Gaibnazarova va boshqa olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.

Innovatsion jarayonlarni kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari Sh.Otajonovning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilgan. Xususan, Z.Gaibnazarova tomonidan bajarilgan nomzodlik dissertatsiya ishida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda uning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. G.Xatamovning tadqiqotlarida korporativ tuzilmalarda innovatsion strategiyani takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan ilmiy- nazariy hamda uslubiy taklif va tavsiyalar ilmiy asoslangan.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan jarayonlarni tezlashtirish, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan turli mulkchilikka asoslangan korxonalarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning raqobatbardoshlik darajasi va innovatsion salohiyatiga bevosita bog'liqligi, hozirda yirik korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish va raqobat muhitini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan turli shakldagi korxonalar milliy iqtisodiyotning istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarmoqda. Ammo korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimining sustligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga, unga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishga, istiqbolli innovatsion loyihalarni amalga oshirish va shu kabi boshqa ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, korxonalarda innovatsion jarayonlarning rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish milliy iqtisodiyotning raqobatchilik muhitini vujudga kelishini ta'minlaydi. Natijada iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning mazmuni nafaqat boyitiladi, balki ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali bo'lgan xo'jalik yuritish faoliyati, tarmoq va sohalarning keng hamda har tomonlama rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. Ishlab chiqarish va iste'moldagi turli yakka hukmronlik holatlariga barham berilib, korxonalar mablag'lari va boshqa resurslarning samarali taqsimlanishi va harakatchanligi ortadi.



Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ixtiyoriy davlatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi o'sha davlatda yaratilgan qulay ishbilarmonlik va biznes muhitiga bog'liq bo'ladi.

23–28-yanvar 2022-yilda Shveysariyaning Davos shahrida o'tkazilgan 39-an'anaviy Jahon iqtisodiy forumida Dunyo mamlakatlarining "Global raqobatbardoshlik" to'g'risidagi hisoboti chop etildi. Mazkur hisobot ma'lumotlariga ko'ra, Shveysariya 2015-yildan buyon 5 yil mobaynida "Global raqobatbardoshlik" to'g'risidagi reytingda 1-o'rinni egallab kelmoqda. Reytingning birinchi uchligidagi mamlakatlar oldingi yilga nisbatan o'z holatlarini o'zgartirmagan. Reytingda Shveysariya (1), Singapur (2) va Finlyandiya (3) o'rinlarni egallashgan.

1-jadval: Jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlar reytingi

| № | Mamlakatlar | Reyting | | O'zgarish |
|-----|-----------------|----------|----------|-----------|
| | | 2022-yil | 2019-yil | |
| 1. | Shveysariya | 1 | 1 | 0 |
| 2. | Singapur | 2 | 2 | 0 |
| 3. | Finlandiya | 3 | 3 | 0 |
| 4. | Germaniya | 4 | 6 | +2 |
| 5. | AQSh | 5 | 7 | +2 |
| 6. | Shvetsiya | 6 | 4 | -2 |
| 7. | Gonkong | 7 | 9 | +2 |
| 8. | Gollandiya | 8 | 5 | -3 |
| 9. | Yaponiya | 9 | 10 | +1 |
| 10. | Buyuk Britaniya | 10 | 8 | -2 |

Manba: <http://gtmarket.ru>

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlar reytingi o'nligida Yevropa mamlakatlari yuqori ustunlikka ega. Mazkur birinchi o'nlikka kirgan mamlakatlarning 3 tasi Osiyo qit'asiga to'g'ri keladi. Bulardan, Singapur (2), Gonkong (7) va Yaponiya (9) o'rinlarni band etgan. Mazkur hisobotda AQSHlari so'nggi to'rt yil ichida o'z holatini 2 punktga ko'tarishga erishgan. MDH mamlakatlari ichida Ozarbayjon (39;+7) yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, oldingi yilga nisbatan 7 punktga ko'tarilgan. Bunday ijobiy o'zgarishlar Rossiya (64;+3), Gruziya (72;+5), Armaniston (79;+3), Qirg'iziston (121; +6) kabi davlatlarning ko'rsatkichlarida ham kuzatilgan. Ukraina esa (84;-11) mazkur reytingda oldingi yilga nisbatan 11 punkt pasaygan. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur birinchi o'nlikka kirgan mamlakatlarda innovatsiya va kuchli institutsional muhit darajasi keyingi besh yilda sezilarli ravishda yaxshilangan.

Demak, faoliyat yuritayotgan firma, korxonalar, tashkilot va korporatsiyalarning raqobatbardoshligi mamlakatning monopoliyaga qarshi kurash va raqobat muhitini yaxshilash tizimini samarali ishlashiga bog'liq. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xususiy mulkchilikning rivojlanganlik darajasi, uni davlat tomonidan kafolatlash tizimi hamda mamlakatning innovatsion siyosati va kuchli institutsional muhit darajasining yuqoriligi bilan ham belgilanadi.

Davlatimiz tomonidan Jahon iqtisodiy forumi qabul qilgan global raqobatbardoshlik indeksiga kiruvchi 12 ta guruhga oid omillar asosda O'zbekistonning boshqa mamlakatlarga nisbatan raqobatbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha istiqbolli dasturlar ishlab chiqildi. Natijada milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini baholashda makroiqtisodiy vaziyat (jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM, YAIM deflyatori, ishsizlik darajasi), davlat institutlari sifati (xususiy mulk himoyasi indeksi, monetar siyosat erkinligi, kredit tashkilotlari, bojxona xizmatlari sifati), inson omili (umr ko'rish uzunligi, o'lim darajasi, 10000 kishiga nisbatan sil bilan kasallanish darajasi, boshlang'ich maktab qamrovi darajasi), innovatsion salohiyat (korxonalar asosiy fondlarini yangilash, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarishni texnologik jihatdan qayta qurollantirish, innovatsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalar salmog'i) kabi ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishildi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, makroiqtisodiy ko'lamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini yaxshilash maqsadida ijobiy natijalarga erishilgan. Lekin korxonalarda moddiy-texnika bazasining holati va bozorda mahsulotlarning raqobatga dosh bera olmasligi innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishda ayrim muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishda quyidagi asosiy muammolarga e'tibor qaratish lozim:



birinchidan, mamlakatimiz bir qator fundamental fan sohalarida katta salohiyatga ega, ammo ushbu salohiyatni ishlab chiqarish bilan bog'langan holda ishga solish mexanizmi yaratilmagan;

ikkinchidan, real sektor korxonalarining innovatsiyalarni qabul qilish jarayonini past darajada qolayotganligi korxonalarida ilg'or texnologiyalarga bo'lgan talabning sustlashishiga olib kelmoqda

uchinchidan, qulay ishbilarmonlik va biznes muhitini yaratish borasida kamchiliklarning mavjudligi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizning real sektor korxonalarini bo'yicha innovatsion salohiyat va raqobat muhitini o'rganish borasidagi vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar soni respublikamizda 144 tani tashkil etgan. Jumladan, tarmoq bo'yicha "O'zbekenergo" DAKda 5 ta, "O'zbekneftgaz" MXKda 7 ta, "Toshshaharxizmat" da 13 ta, "Yengilsanoat" DAKda 13 ta, "Eltexsanoat" uyushmasida 3 ta, kommunal xo'jaligi korxonalarida 28 tani tashkil etgan. Shundan iqtisodiy nochor korxonalar soni 63 tani tashkil etib, "O'zkiyosanoat" DAKda 7 ta, "O'zavtoyol" DAKda 13 ta, kommunal xo'jaligi korxonalarini 19 ta, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarida 3 taga to'g'ri kelgan.

Ma'lumotlar shu narsani ko'rsatmoqdaki, ayrim korxonalar menejerlari hozirgacha milliy va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilmaslari, iste'molchi talabi va didini o'rganmasligi, korxonaning boshqarish mezoniga nisbatan qaysi yo'nalishda barqaror raqobatli ustunlikka erishish imkoniyatlarini aniqlay olmasligi korxonalarining raqobat kurashida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelmoqda.

Markazlashtirilgan rejalashtirishdan bozor munosabatlariga o'tish korxonalar samaradorligi uchun tubdan qayta shakllanishlar jarayonining boshlang'ich tamoyili hisoblanadi. Ko'plab korxonalar boshqaruvchilarning oldida turgan asosiy muammolaridan biri bo'lib, aylanma mablag'larning yetishmovchiligi hisoblanadi. Har bir korxonaning asosiy maqsadi, doimiy tarzda foyda olishdan iboratdir. Biroq, bozor sharoitlarida boshqaruvchilar korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muammolarga duch kelishi mumkin. Demak, korxonalar o'zining asosiy maqsadlarini hal etishda uning moliyaviy mexanizmi quyidagi masalalarni hal etishi zarur.

Yaqin kelajakka mo'ljallangan korxonaning rivojlanish maqsadlariga mos ravishda moddiy manbalarning yetarli hajmini ta'minlash. Ushbu masala belgilangan muddat bo'yicha zaruriy moliyaviy manbalar hajmini belgilash hamda ichki manbalar va tashqi hamkorlar hisobiga moliyaviy manbalarni maksimal darajada jalb etish, shu bilan birga kredit moliyaviy vositalarni mohirona boshqarish va manbaviy moliyaviy salohiyatni shakllantirishni optimallashtirish asosida amalga oshiriladi.

Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari uchun mo'ljallangan moliya hajmini samarali sarf qilishni shakllantirish. Bunda moliyaviy manbalarni optimal taqsimlash korxonalar rivojlanish maqsadlari uchun foydalanishda zaruriy moslikni (proporsionallikni) yaratishni taqozo etadi. Korxonaning ishlab chiqarish jarayonida uning rivojlanishining strategik maqsadlari o'rganilishi hamda moliyaviy qo'yilmalaridan olinadigan foyda darajasi tadqiq etilishi lozim.

Moliya aylanmasini me'yoralashtirish. Ushbu vazifa korxonaning moliya oqimlarini samarali boshqarish, turli muddat davomida pul mablag'larini jalb qilinishi va o'tkazilishi o'rtasidagi moslikni ta'minlash hamda korxonaning aylanma aktivlarini zaruriy darajada qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Bunday moliyaviy optimallashtirishning natijasi, moddiy aktivlarning o'rtacha qoldig'ini minimallashtirish hisoblanadi va bu holat esa moliyalarni nosamarador taqsimlash va inflatsiya asosida sodir bo'luvchi yo'qotishlarni kamayishini ta'minlaydi.

Mavjud bo'lgan moliyaviy tavakkalchilik sharoitida korxonalar foydasini maksimallashtirishini ta'minlash, bu holat esa samarador boshqaruv faoliyati, moliya aylanmasiga korxonalar aktivlari va kredit-moliyaviy vositalarni jalb qilish hamda korxonalar faoliyatida yuqori samarador yo'nalishlarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy rivojlanish uchun korxonalar samarador soliq, amortizatsion va dividend siyosatini olib borish asosida sof foydani oshirishga intilishi zarur. Korxonalar foydasini maksimallashtirishga moliyaviy tavakkalchilik darajasini sezilarli darajasini oshirish orqali erishiladi.

Foydaning rejalashtirilgan hajmiga mos ravishda moliyaviy tavakkalchilik darajasini pasaytirish. Agarda korxonaning daromadi darajasi avvaldan rejalashtirilgan bo'lsa, u holda ushbu foydani olishni kafolatlovchi moliyaviy tavakkalchilikni minimallashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu holatga amaliy (operatsion) va moliyaviy faoliyatning turli ko'rinishlaridan hamda moliyaviy investitsiyalar paketidan foydalanish orqali erishish mumkin.

Korxonaning rivojlanish jarayonida muqim moliyaviy tenglikka erishish. Muqim moliyaviy rivojlanish moliyaviy barqarorlik hamda korxonalar faoliyatining har bir bosqichida to'lov qobiliyatining yuqori ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Bu holat moddiy vositalarning optimal tuzilmasini yaratish va ishlab chiqarish talablarini o'z-o'zini moliyalashning yetarli darajasini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi mulohazalar korxonalar samaradorligini va raqobatdoshligini oshirishning muhim omili innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish ekanligini ko'rsatadi. Chunki innovatsion jarayonlar strategiyasi raqobatchilarga nisbatan mazkur korxonalar salohiyati va kuchini mustahkamlashga qaratilgan, qo'yilgan maqsadlarga erishishning o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Bu esa, korxonalar innovatsion strategiyasini to'g'ri tanlashga, mahsulot raqobatdoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga,



ishlab chiqarish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Pirovard natijada korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Очковская М.С. Инновации как качественный фактор экономического роста. Автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –М.: Дело, 2006. –С.4.
2. Ветров А.А. Структурно-целевой анализ экономического потенциала предприятия (теория и методология). – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 2008. –188 с.
3. Гогина Г.Н., Никифорова Е.В., Шиянова С.А. Комплексный анализ экономического потенциала организации. Под ред. А.И. Афоничкина. –Тольят-ти: Волжский университет им. В.Н. Татищева, 2003 – 175 с.
4. Дракер П. Управление, нацеленное на результаты: Пер. с англ. – М.: Технологическая школа бизнеса, 2004. – 200 с.
5. Морозова Л. Э., Бортник О. А., Кравчук И. С. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий. Учебное пособие.: –М.: Альпина бизнес букс, 2009. – С.9.
6. Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке.: Пер. с англ.: –М.: Издательский дом “Вильямс”, 2004. – 272 с.
7. Афоничкин А.И. Основы менеджмента. Учебное пособие.: –М.: Кнорус, 2011. –С.272.
8. Шавель А. В. Сущность понятия “инновация” как экономической категории // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. // www.uecs.ru
9. Ergashev F., Raximova D., Sagdullayev A., Parpiyev O., Zaynutdinov Sh. Innovatsion menejment. Darslik. –Т.: Akademiya, 2005. –239 b.
10. Gimush R.I., Matmuradov F.M. Innovatsion menejment / O'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. –144 b.
11. Yo'ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Ye.D. Innovatsion menejment. Darslik. –Т.: Iqtisodiyot, 2011. –312 b.
12. Taraxtiyeva G. K. Innovatsion menejment / O'quv qo'llanma. –Т.: Fan va texnologiyalar, 2013. – 208 b.
13. Otajonov Sh.I. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.: Iqtisod fanlari nomzodi diss.avtoref. –Т., 2010. –27 b.
14. Gaibnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.: Iqtisod fanlari nomzodi. diss.avtoref. –Т., 2012. –28 b.
15. Хатамова Г.Р. Совершенствование механизма инновационной стратегии в корпоративных структурах” (На примере ОАО “Ташкентский тракторный завод”):. Iqtisod fanlari nomzodi. diss.avtoref. –Т., 2010. –28 b.
16. <http://gtmarket.ru>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.